



INVESTITSIALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA MINTAQALARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH

PhD, dots. **Toshaliyeva Saodat**
Termiz davlat universiteti
ORCID: 0000-0002-0271-6534
saodattoshaliyeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish nazariy va amaliy jihatlari yoritilib berilgan. Respublika hududlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulotlar hajmi va asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi o'rganilib, bu bo'yicha xorijiy mamlakatlar bilan solishtirma tahlil amalga oshirilgan. Bundan tashqari, investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: YAIM, YAHM, investitsiya, kapital, mintaq, mintaqaviy iqtisodiyot, samaradorlik, investitsiyalar samaradorligi.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ

PhD, доц. **Тошалиева Саодат**
Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье освещены теоретические и практические аспекты экономического развития регионов на основе эффективного использования инвестиций. Проанализирована динамика валового регионального продукта и объема освоенных инвестиций в основной капитал по регионам республики. Кроме того, изучена технологическая структура инвестиций в основной капитал как показатель эффективного использования инвестиций, а также проведен сравнительный анализ с зарубежными странами. Также разработаны предложения по экономическому развитию регионов на основе эффективного использования инвестиций.

Ключевые слова: ВВП, ВРП, инвестиции, капитал, регион, региональная экономика, эффективность, эффективность инвестиций.

ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS BASED ON THE EFFICIENT USE OF INVESTMENTS

PhD, assoc. prof. **Toshaliyeva Saodat**
Termez State University

Abstract. *This article highlights the theoretical and practical aspects of regional economic development based on the efficient use of investments. The dynamics of gross regional product and the volume of assimilated investments in fixed capital across the regions of the republic are analyzed. Furthermore, the technological structure of investments in fixed capital has been studied as an indicator of investment efficiency, and a comparative analysis with foreign countries has been carried out. In addition, proposals have been developed for promoting regional economic development based on the effective utilization of investments.*

Keywords: GDP, GRP, investment, capital, region, regional economy, efficiency, investment efficiency.

Kirish.

Bugungi globalashuv sharoitida jahondagi har qaysi davlat iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash uchun tobora ko'proq investitsiyalarni jalb qilishga harakat qilmoqda. Xususan, Afrika, Janubiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Markaziy Osiyo kabi dunyodagi turli mintaqalarda investitsiya siyosatlari orqali barqaror rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish, texnologiya transferi va infratuzilmaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki, investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, eksportbop mahsulotlar yaratish va aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi.

Shu boisdan Yangi O'zbekistonda ham hududlarni iqtisodiy rivojlantirish, mehnat bozori samaradorligini oshirish, mavjud infratuzilmalar holatini yaxshilash, hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va diversifikatsiyani ta'minlash, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (2023) qabul qilingan. Mazkur strategiyaning qator maqsadlari va vazifalari sifatida hududlarni kompleks rivojlantirish, hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini yanada oshirish kabilar belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash va hududlardagi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilash, infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi ustuvor vazifalarni hal etish investitsiyalarning samarali yo'naltirilishi va foydalanilishiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, investitsiyalarning samarali foydalanishi asosida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish mavzusi bugungi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi va bu hududlarni har tomonlama taraqqiy etishiga olib kelishi ham nazariy ham amaliy jihatdan ko'p tadqiqotlar asosida isbotlangan. Xususan:

Spilioti va Anastasioularning (2024) tadqiqotiga ko'ra, hududiy investitsiya siyosatining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga biznes muhitini yaxshilash, soliq imtiyozlari, klasterlar, maxsus iqtisodiy zonalar, hududiy marketing, davlat-xususiy sheriklik va strategik investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash kiradi.

Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni mahsulotlar va xizmatlar portfelini kengaytirish orqali mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish jarayoni sifatida qarash lozim (Frenken va boshq., 2023).

Norqobilovning (2023) fikricha, mintaqalar iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlashda investitsion salohiyatdan unumli foydalanish, investitsiyalarning hudud iqtisodiy o'sishidagi samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman aytganda, qulay investitsiya muhiti investorning u yoki bu davlat iqtisodiyotiga mablag' sarflashi maqsadida shart-sharoitlar qulayligini, ya'ni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar yaratilganligini o'z ichiga oladi. Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Huddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi (Tuxliyev, 2021).

Zero, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mintaqaviy tafovutlarni qisqartirishda investitsiyalardan samarali foydalanish, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalarning hududiy tarkibini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega (Nazarova, 2018).

Bundan tashqari, ilg'or mamlakatlarda amortizatsiya mablag'lari innovatsion investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, AQShda amortizatsiya hissasi umumiy kapital qo'yimlarning 70-75 foizini tashkil etadi (Umarov, 2023).

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, hududlarni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish nafaqat mablag' ajratish, balki uni samarali yo'naltirish va monitoring qilishga ham bog'liq. YA'ni, investitsiyalarni aniq natijalarga erishish uchun hududiy ehtiyojlarga mos ravishda yo'naltirish lozim. Mamlakatimiz hududlari uchun investitsiyalarni strategik yo'nalishlarga jalb qilish, jumladan kam rivojlangan mintaqalarni qo'llab-quvvatlash – iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omildan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy statistik ma'lumotlar, statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafiklardan, shuningdek statistik va solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda 2023-yilda YAIM hajmi 1066569,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 106 foizga o'sgan. YAIM shakllanishida tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 94,5 foiz ulushga ega. Jami tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24,3 foiz, sanoat (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 32,3 foiz, shundan sanoatning ulushi 26,1 foiz, qurilishning ulushi 6,2 foiz, xizmatlarning ulushi 43,4 foiz, shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushi 7,2 foiz, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarining ulushi 7,7 foiz va boshqa xizmat tarmoqlarining ulushi 28,5 foizni tashkil etadi.

Xususan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi 245222,5 mlrd. so'm, sanoat mahsulotlari hajmi 262824,2 mlrd. so'm, qurilish ishlari hajmi 62554,2 mlrd. so'm, xizmatlar hajmi 437822,2 mlrd. so'm, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari 72382,4 mlrd. so'm, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari 77833,1 mlrd. so'm va boshqa xizmat tarmoqlarida 287606,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Yalpi hududiy mahsulotlar (YAHM) bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda YAHM hajmi Qoraqalpog'iston Respublikasida 39166,2 mlrd. so'm, Andijonda 77337,9 mlrd. so'm, Buxoroda 61242,6 mlrd. so'm, Jizzaxda 37383,2 mlrd. so'm, Qashqadaryo viloyatida 68648,6 mlrd. so'm, Navoiyda 88215,4 mlrd. so'm, Namanganda 58173,7 mlrd. so'm, Samarqandda 83149,5 mlrd. so'm, Surxondaryoda 46999,2 mlrd. so'm, Sirdaryoda 24001,7 mlrd. so'm, Toshkent viloyatida 121442,6 mlrd. so'm, Farg'onada 78009 mlrd. so'm, Xorazmda 43666,7 mlrd. so'm, Toshkent shahrida 215099,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.


1-jadval

Yalpi hududiy mahsulot hajmi, mlrd. so'm

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13292,6	18761	23392,7	25523,4	29738,2	35541,6	39166,2
Andijon	22437,3	30513,9	38052,1	42623,6	48894,3	62981,4	77337,9
Buxoro	19497,4	24883,4	31894,8	35320	43069,7	51728,0	61242,6
Jizzax	10782,5	14168,2	18047,3	20249,8	25632,4	30367	37383,2
Qashqadaryo	25263,5	30575,1	37532	40829,7	49397,5	57629,1	68648,6
Navoiy	15693,1	23988,8	38258	51800,6	61118,4	71994,1	88215,4
Namangan	17798,7	22193,7	28391,7	32713,2	40269,1	48513,7	58173,7
Samarqand	29852,1	36320,9	43558,9	47576,0	59260,4	68988,6	83149,5
Surxondaryo	16354,4	21229,4	25473,1	27571,6	33591,1	39201,8	46999,2
Sirdaryo	7615,0	9602,2	13593,4	14285,1	16865,1	20155,6	24001,7
Toshkent	31952,3	44280,2	60995,4	70691,6	91317,3	103244,8	121442,6
Farg'ona	24218,2	31814,0	38116,4	43413,1	55831,9	65516,9	78009,0
Xorazm	13557,6	17763,1	21574,3	23531,8	29737,2	37474,3	43666,7
Toshkent shahri	55404,6	72643,0	96484,8	107474,4	139396,8	172469,3	215099,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimizda jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 356071,4 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2023-yilda 2022-yilga nisbatan respublika bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning jami hajmi qariyb 1,3 baravarga oshgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2011 va 2015-yillarda 1,2 baravarni va 2020-yilda esa 1,1 baravarni tashkil etgan.



1-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlillarga ko'ra, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning eng yuqori hajmi Toshkent shahri (71143,7 mlrd. so'm), Toshkent (47709,3 mlrd. so'm) va Buxoro (31030,5 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Navoiyda 26398,6 mlrd. so'm, Samarqandda 25717,1 mlrd. so'm, Qashqadaryoda 21138,0 mlrd. so'm, Farg'onada 19955,0 mlrd. so'm, Namanganda 19220,1 mlrd. so'm, Andijonda 18639,1 mlrd. so'm, Surxondaryoda 18307,7 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilgan.

2-jadval

**Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm**

Hududlar	2011	2013	2015	2017	2019	2021	2023
Qoraqalpog'iston Respublikasi	950,3	2415,0	6021,2	2822,0	8750,6	8110,7	12959,2
Andijon	1037,2	1462,3	1956,5	2986,0	7452,1	11176,6	18639,1
Buxoro	2101,8	2998,7	4075,9	11613,4	10366,6	20528,3	31030,5
Jizzax	580,3	1128,5	1304,9	1788,2	7900,9	9233,6	14970,9
Qashqadaryo	2265,9	3667,8	5894,7	11175,3	24462,5	17359,1	21138,0
Navoiy	1421,9	1696,9	1809,1	3977,9	17646,3	15020,1	26398,6
Namangan	764,2	1205,1	2227,5	3586,7	12084,9	12982,0	19220,1
Samarqand	1345,6	2127,6	3237,2	4384,2	10266,7	15641,6	25717,1
Surxondaryo	802,9	1371,0	1843,6	3551,0	11835,1	12037,8	18307,7
Sirdaryo	596,7	852,8	1083,3	1628,0	5869,1	8051,8	15871,8
Toshkent	2221,6	3195,2	4428,1	5938,4	20353,9	28113,6	47709,3
Farg'ona	1261,4	2130,0	2542,3	2954,5	8685,4	12625,2	19955,0
Xorazm	627,1	1256,9	1531,5	2175,9	5032,0	8292,0	11666,1
Toshkent shahri	3523,1	4977,1	6854,6	13573,7	42458,1	58172,7	71143,7


Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (15871,8 mlrd. so'm), Jizzax (14970,9 mlrd. so'm) va Xorazm (11666,1 mlrd. so'm) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (12959,2 mlrd. so'm) hissalariga to'g'ri kelgan.

Yuqorida keltirilgan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish holati, ya'ni ularning texnik tarkibi investitsiyalardan samarali foydalanishning asosini tashkil etadi. Shu boisdan, bu bo'yicha mamlakatimiz va ayrim xorijiy mamlakatlar tajribalari o'rganildi. Xususan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarida o'rtacha hisobda ustuvor yo'nalishlar konchilik va karer qazish (15,7 %, jami investitsiyaga nisbatan), ishlab chiqarish sanoati (13,2 %), transport va saqlash (17,4 %) va ko'chmas mulk operatsiyalari (14,0 %) ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, Belarusiyada qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (16,2 %), ishlab chiqarish sanoati (18,1 %) va ko'chmas mulk operatsiyalari (19,3 %) ustuvorlik qilgan. Qozog'istonda investitsiyalarni yo'naltirish bo'yicha ustuvorlik konchilik va karer qazish (29,2 %), ko'chmas mulk operatsiyalari (19,3 %), transport va saqlash (11,3 %) hamda ishlab chiqarish sanoati (10,4 %)ga qaratilgan.

Tahlillarga ko'ra, respublika bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini mashina, asbob-uskunalar va inventar sotib olishga 161540,2 mlrd. so'm (jamining 45,9 foizi), qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 160440,2 mlrd. so'm (45,6 %) hamda boshqa xarajatlar uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 30083,7 mlrd. so'm (8,5 %)ni tashkil etgan.


Fikrimizcha, mamlakatimizda noishlab chiqarish ishlariga, xususan bino inshootlar qurilishiga ko'p investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Undan ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri sanoat mahsulotlari, xususan sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish va kengaytirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yuqorida ko'rib chiqilgani kabi xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ustuvorlikni belgilashda kompleks yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.



2-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar texnik tarkibi, %

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bundan tashqari, investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirish bir qancha jarayonlarga bog'liq bo'lib, bu boradagi asosiy yo'nalishlarni quyidagi bog'liqlikda ifodalash mumkin.



3-rasm. Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqorida ko'rsatilgan investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yaxlit va uzviy yondashuvni ifodalaydi. Ushbu yo'nalishlar iqtisodiy siyosatning muhim elementlarini qamrab olgan bo'lib, xususan investitsion muhitni yaxshilash, klasterlar faoliyatini rivojlantirish, real sektorni qo'llab-quvvatlash va institusional kafolatlarni mustahkamlash kabi chora-tadbirlar orqali hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Bunda har bir yo'nalishning amalga oshirilishi hududlar salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, uzoq muddatli barqaror o'sishga asos yaratadi.

Shu bilan birga, investitsiya jarayonlarini ilmiy tahlillar va zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarish, manzilli va maqsadli yondashuvni ta'minlaydi. Mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqib investitsiyalarni yo'naltirish, rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foydalanish, hududlar bo'yicha individual yondashuvlar orqali muammolarni hal etish investitsion jozibadorlikni oshiradi. Bu esa o'z navbatida hududlarda yangi ish o'rinlarini

yaratish, mahalliy aholi daromadlarini oshirish va hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Mintaqalarda barqaror va muvozanatlashgan iqtisodiy o'sishga erishish, hududlarning ichki salohiyatini to'liq ishga solish va zamonaviy infratuzilmaviy hamda sanoat quvvatlarini yaratishda investitsiyalarning samarali foydalanilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Istiqboldagi strategik rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda quyidagi muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- mintaqaviy iqtisodiyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va tendensiyalarni iqtisodiy-matematik modellash va tahlillar orqali chuqur o'rganish zarur. Bu orqali har bir hudud uchun individual investitsiya siyosatini ishlab chiqish, tahlillarga tayanadigan strategik qarorlarni qabul qilish lozim;

- mintaqalarda investitsion jozibadorlikni oshirish, xususan xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qo'shimcha erkinliklar berish, soliq va huquqiy imtiyozlarni joriy etish orqali sarmoya jalb qilishni faollashtirish, shu bilan birga investitsiya yo'nalishlarining mahalliy ish o'rinlari yaratish bilan bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilishi zarur;

- rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, klasterlashuv va davlat xaridlarini lokallashtirish orqali mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish lozim. Bu esa hududlarda aholi bandligini oshiradi, ishlab chiqarishni kuchaytiradi va mintaqalarning eksport salohiyatini kengaytiradi;

- iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subektlarning investitsiyalarni jalb qilish salohiyatini oshirish uchun ularning faoliyatini liberallashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

- mintaqalarda yangi texnologiyalarga asoslangan, eksportbop va yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini aniqlash va ularni amaliy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;

- YAHMning shakllanishida yetakchi o'rinni egallagan strategik tarmoqlarda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini davlat tomonidan amaliy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali amalga oshirish;

- investitsiyalardan samarali foydalanish uchun ilg'or texnologik yechimlar, energiya tejamkor tizimlar va raqamlashtirish usullarini keng joriy etish, bunda xalqaro tajribalar asosida hamkorlik mexanizmlarini jadal rivojlantirish lozim;

- har bir hududning tabiiy resurslari, mehnat kapitali, geografik o'rni va ijtimoiy infratuzilmasini hisobga olgan holda ixtisoslashuv strategiyasi ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiluvchi ustuvor omildir. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan, texnologik va inson kapitaliga tayanadigan, erkinlashtirilgan va tizimli investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va samarali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.*

Koen Frenken, Frank Neffke, Alje van Dam. (2023) *Capabilities, institutions and regional economic development: a proposed synthesis // Cambridge Journal of Regions, Economy and Society, Volume 16, Issue 3, November, P. 405-416*

lex.uz. (n.d.). LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi. [online] Available at: <https://lex.uz>.

Nazarova F.U. (2018) *O'zbekiston mintaqalarining mutanosib rivojlanishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish* // *Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi*, 2. 58-61 b.

Norqobilov N.N. (2023) *Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqqa iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlash*. – diss. avtoreferati. –Ur. - 19 b.

Spilioti N.; Anastasiou A. (2024) *European Structural and Investment Funds (ESIFs) and Regional Development across the European Union (EU)*. *J. Risk Financial Manag.* 17, 228.

Stat.uz. (2025). *O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi*. [online] Available at: <https://www.stat.uz>.

Tuxliyev B.K. (2021) *Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari*. - Monografiya. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" -T, - 191 b.

Umarov O.O. (2023) *Innovatsiyalarni investitsiyalashni rivojlantirishda jahon tajribasi* // *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*. Volume 3 | Issue 18 |, 24-33 b.

Ziyonet.uz. (2025). *ZiyoNET > Kutubxona*. [online] Available at: <https://library.ziyonet.uz>